TA‘LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Mamaraimova Diyora Oybekovna - Guliston davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda kelajak avlodga sifatli va zamonaviy ta‘lim berish, bu orqali yurtimiz rivojini yanada oshirish asosiy maqsadlarimizdan biriga aylandi. Tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda axborot olish va undan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganish yoshlar oldidagi asosiy muammolardan biriga aylangani ayni haqiqat.

Kalit so‘z: sifatli ta‘lim, ta’lim muassasalari, raqamli texnologiya, interfaol taqdimot.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi hayotimizda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda keng qo‘llanilmoqda va asosi hisoblanadi.

Bank tizimi, iqtisodiyot sohasi shuningdek ta’lim jarayonini ham tez fursatda rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

XXI asrga kelib raqamli texnologiyalar shu qadar rivojlandiki “XXI asr raqamli texnologiyalar asri” demaslikning iloji yo‘q. “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Zamon talablaridan kelib chiqqan holda ta‘lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga integratsiyalashib ketayotgani hayratlanarli emas. So‘nggi yillarda ta‘limni “Raqamlashtirishning” afzalliklari va yoshlarga ijobiy ta’siri yuqori. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Qisqa qilib aytganda internet tizimidagi muhitning “axborot madaniyatidan xabari yo‘q” bolalar ongiga tasiri qanday?. Salbiy oqibatlarni oldini olish uchun nimalar qilishimiz zarur? degan savol paydo bo‘ladi.

Ta’limda raqamli texnologiyalarni ta’lim sifatini saqlab qolgan holda samarali qo‘llash uchun qanday ishlarni amalga oshrishimiz zarur?

Birinchidan, zamonaviy texnologiyalar va ta’lim texnologiyalarining samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish.

Ikkinchidan, mamlakatimizda axborot almashinuvi tezligi, ya’ni internet infratuzilmasini yaxshilash va eng muhimi talaba yoshlarga qulay shart-sharoitlar yaratib berish.

Uchinchidan “Bo‘ladigan bola boshidan ma’lum” deganlaridek kichik sinf o‘quvchilariga o‘tilayotgan EXM darslari samarasiga e’tibor qaratish va yanada oshirish.

To‘rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlari elektron resurslardan foydalanish, virtual zallardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy ta’li jarayonini amalga oshirish.

Hayotimiz har jihatdan texnologiyalarga uzviy va uzluksiz bog‘liq. Biz esa bundan oqilona va madaniyat bilan foydalanib ta’lim sifatini oshirish va rivojlantishni istaymiz.

Raqamli tizim orqali yuzaga kelayotgan ba’zi kamchiliklar va afzalliklarga maktablarni misol qilishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan yurtimizdagi barcha umumta’lim maktablar uchun “Kundalik.com” tizimi joriy etilgan.

Kundalik- o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar uchun raqamli ta’lim platformasi hisoblanadi. Bu tizim har bir o‘qituvchi va o‘quvchining qulayligini o‘ylagan holda yaratilgan. “Kundalik.com” tizimi onlayn tarzda o‘qituvchilarni darslarini bir jadvalga solish, o‘quvchilarning davomati hamda o‘zlashtirishini elekton jurnalda qayt etib borish va eng muhimi ota-onalar bilan doimiy onlayn aloqani o‘rnatishni ta’minlaydi. Bu tizimning afzalliklaridan yana biri bu har hafta yangi statistika chiqariladi va maktablar kesimida o‘tgan hafta davomida yaxshi yoki yomon faoliyat olib borgani ham ma’lum bo‘ladi. Buning natijasida esa maktablar orasida o‘z-o‘zidan raqobat shakillanishiga ya’ni tizimlilikning yanada oshishiga olib keladi.

Biroq yurtimizda internet infratuzilmalari qoniqarli darajda emasligi tufayli to‘lliq raqamlashtirish tizimiga o‘ta olganimiz yo‘q. Chekka hududlarda, ayniqsa, qishloq joylarda 15- 20% gina maktab o‘quvchilar, ularning ota-onalari tizimdan foydalan olishadi. Bunga sabablardan yana biri zamonaviy telefonlardan kam aholi foydalanishi, trafik narxlarining qimmatligi va h.k. Ota onalarning ba’zilari “Qog‘oz kundalik qulay edi, kundalik daftar yo‘qligi sababli dars jadvalidan behabar qolyabmiz, dars jadvalini ham bilmay qolyapti” deb ta’kidlashmoqda.

Bunday sabablar bizni raqamli tizimdan foydalanishimiz va uning samarali natija berishi uchun to‘siq bo‘layotgan sabablardandir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishmiz mumkinki raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi bir muncha qiyinchiliklar keltirib chiqarsada boshqa bir tomondan ta’lim tizimida, balki ko‘pgina sohalarda yutuqlarga erishishimizga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘sib-unib kelayotgan avlodlarning yutuqlarida namoyon bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni

2. Mirziyoycv Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, «O‘zbekiston», 2016 yil, 56 bet

3. Olimov Q.T., Mavlonov N.Sh. O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimini pedagog kadrlar bilan ta’minlash va ularning kompetentsiyasini oshirish jarayonining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari. /– B. 21-23